

**O`zbekiston Respublikasi**  
**Xalq ta'limi vazirligi**  
**Navoiy davlat pedagogika instituti**

**Ravshan Rajabov**

# **QADIMGI DUNYO TARIXI**

## **XRESTOMATIYASI**

5A110601- Tarix o`qitish metodikasi bakalavr ta'lim йўналиши

**Navoiy-2014**

# **Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha xrestomatiya: O'qituvchi va talabalar uchun o'quv qo'llanma.**

## **R. Rajabov.**

### **Annotatsiya**

Mazkur o'quv qo'llanma qadimgi dunyo tarixi fani bo'yicha birinchi manbalarning saylanma tarjimalaridan tuzilgan.

Hozirgacha qadimgi dunyo tarixi bo'yicha yozma manbalar o'zbek tilida mukammal xrestomatiya tarzida berilmagan edi. Qo'llanmada qadimgi Sharq, Yunon-Rim tarixi bo'yicha huquqiy hujjatlar, antik mualliflarning asarlaridan parchalar berilgan va mualliflar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar mavjud. Hozirgi kunda talabalar jahon tarixining qadimgi davri bo'yicha to'laqonli bilim olishlari uchun bu xrestomatiya darslik va o'quv qo'llanmalarini to'ldirib keladigan zaruriy qo'llanma vazifasini o'taydi. Shuningdek, talabalarining mustaqil ravishda bilim olishi uchun eng muhim adabiyotlardan biri o'rnida keladi.

Qo'llanma universitet, pedagogika institutlari, 5140600 "Tarix" ta'lim yo'nalishi bakalavrlari, o'rta maktab o'quvchilari va tarix o'qituvchilariga mo'ljallangan bo'lib, tarix fanini o'zlashtirish hamda tarixiy ong, tarixiy rafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Аннотация**

Пособие предназначено для преподавателей и студентов исторических факультетов университетов и педагогических институтов.

Хрестоматию включены отрывки из письменных источников по истории Древнего Востока, античных обществ Греции и Рима. Материалы пособия раскрывают роль географической среды в развитии обществ, характеризуют социально-экономические отношения, политический строй, внешнюю политику, известных государственных деятелей, культуру народов древнего мира. Содержат опорные слова и тесты, список литературы.

Учебное пособие может быть полезным для учителей академических лицеев и колледжей.

### **Summary**

The grant(manual) is intended for the teachers and students of historical faculties of universities and pedagogical institutes.

The fragments from written sources on a history of Ancient East, antique societies(communities) of Greece and Rome are switched on in the grant(manual). The materials of the grant(manual) open a role of geographical environment(Wednesday) in development of societies(communities), characterize the socio economic attitudes(relations), political build, external politics known state figures, culture of the peoples of the ancient world. Contain basic words and tests, list of the literature.

The manual can be useful to the teachers of academic Liceums and colleges.

**Taqrizchilar:** t.f.d. G'. Temirov  
t.f.n. dots. E.Yusupov  
t.f.n. dots. M.Yo'ldasheva

## Kirish

Ushbu qo'llanma hozirgi kunda tarix fanini o'rganishda asosiy muammolardan biri bo'lgan manbalar ustida ishlash yuzasidan zaruriy adabiyot vazifasini bajarishga mo'ljallangan. Yozma manbalarni o'qitish, o'rganish tarix fanini o'rganishda eng asosiy vosita bo'lib, asar orqali o'tmish, tarix qayta tiklanadi.

Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha juda ko'p katta va xilma-xil yozma manbalar mavjud. Mavjud yozma manbalar tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilib, ko'pchiligi rus tilida tarjima qilinib, o'qituvchi va talabalar hukmiga havola qilingan. Shu paytgacha yozma matnlar rus tilida majmua – xrestomatiya tarzida bir necha bor nashr qilingan. Bu manbalar matni rus tilida bo'lgani uchun tarix ta'lim yo'nalishlari o'zbek guruh talabalari uchun foydalanish imkoniyati cheklab qo'yilgan edi. Bu talabalarni tarix fanini mukammal o'zlashtirishiga to'sqinlik qilar edi. Ushbu qo'llanmada qadimgi dunyo tarixi fani bo'yicha matnlar rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib berildi. Tarjima jarayonida har bir matnni mazmun-mohiyatini aynan saqlab qolishga harakat qilindi. Matnlar qadimgi sharq, yunon-rim jamiyatining ijtimoiy -siyosiy, madaniy hayotini eng asosiy jihatlarini tasavvur qilishga xizmat qiladigan asosiy vositalardan biri vazifasini o'taydi. Matnlarda uchraydigan tarixiy atamalarga izoh berildi, antik mualliflar to'g'risida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Matnlar tarjima qilinganda imkoniyat darajasida matnda uchraydigan tarixiy atamalar izohi tarix fanida belgilangan qoidalar asosida berildi. Rus tilidan tarjima qilingan matnlar qadimgi sharq, yunon –rim tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Matnlarni o'qib, ularni tahlil qilish talabada qadimgi jamiyatlar tarixiy taraqqiyotini to'laqonli tasavvur qilishga, talabalarda tarixiy ong va tarixiy tafakkurni shakllanishiga yordam beradi.

Ushbu qo'llanma universitetlar, pedagogika institutlari tarix fakultetlari talabalari, magistrantlar va maktab o'qituvchi va o'quvchilariga mo'ljallangan.

Qo`llanmada ayrim juziy kamchiliklar bor albatta, shuning uchun bu qo`llanmaga nisbatan fikr-mulohazalar bildirilsa, foydadan holi bo`lmaydi.

## **Birinchi qism**

### **Qadimgi Sharq**

#### **1-mavzu. Qadimgi Misr**

#### **Qadimgi Misr tarixi yozma manbalari.**

Qadimgi Misr tarixi bo'yicha yozma manbalar o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Qadimgi Misr yozma manbalarida mamlakat tarixi to'la yoritilmagan, faqatgina Ellin davrida misrlik koxin Manefon yunon tilida misr tarixini umumiy qissasini eng qadimgi davrlardan o'zi yashagan davrgacha bayon qildi. Misrliklar qadimgi Misr tarixi bo'yicha batafsil tarixiy asarni yozmagan bo'lsalarda, lekin ilmiy jihatdan qimmatli manbalarni yaratdilar.

Bizgacha dunyoda eng qadimgi bo'lgan yilnoma (Palermo toshi) deb ataladi. Dunyodagi eng yilnoma bizgacha yetib kelgan. U birinchi besh sulola hukmronlik qilgan davrni qamrab olgan. U nihoyatda dalillarni asoslashda izchilligi bilan ajralib turadi.

Karnak ibodatxonasi devorlaridagi matnlar Yangi podsholik fir'avn davri Tutmos III faoliyatini abadiylashtirgan ularning eng yorqin namunasi bo'ldi. Ular qisqa vaqtni qamrab olsada statistik ma'lumotlar, podsho va zodagonlarning so'zlari bilan voqealarni batafsilroq bayon qiladi. Bu yo'nalishlarda qandaydir umumlashtirishlar yo'q. Fir'avnning yutuqlari va uning shon-sharafidan guvohlik beradigan voqealar abadiylashtiriladi, muvaffaqiyatsizliklar to'g'risida gapirilmaydi.

Kamos yozuvlarida giksoslar hukmronligi davri va misrliklarning chet el bosqinchilariga qarshi ozodlik urushi qiyoslanadi. "Amonga sig'inishni qayta tiklash to'g'risidagi yozuv"da Xudosiz podsho (Exnaton) ning baxtsiz podsholik davri, ibodatxonalar va kohinlarning imtiyozlarini qayta tiklagan e'tiqodli fir'avn hukmronligi bilan qarama-qarshi qo'yiladi.

“Garris katta papirusi” deb ataladigan yozuvning tarixiy qismida XIX sulolaning soʻnggi notinch vaqtlari toʻgʻrisida ochlik, suriyalik Irsu boshchiligida chet ellik qullarning qoʻzgʻoloni, ibodatxona boyliklarini tortib olinishi toʻgʻrisida aytiladi, va shundan soʻng eʼtiqodli firʻavn boshchiligi davrida qaror topgan tinchlik va farovonlik manzarasi tasvirlanadi.

Misr manbalarida koʻp hollarda firʻavnlarni ulugʻlash, ularning sharafiga hamdu-sanolar oʻqish odatdagi hol. Misol uchun Ramses II ni xetlar bilan jangini tasvirida firʻavnni nihoyatda ulugʻlash yaqqol koʻrinadi. Firʻavn oʻzining oʻtmishdoshlari, zamondoshlariga nisbatan yuqori qoʻyiladi. Jangning birinchi bosqichidagi muvaffaqsizlar misr askarlari aybi deb qaraladi. Faqat firʻavnni oʻzi Xudo Amonning yordami bilan ogʻir ahvoldan qutqaradi va dushmanlarni koʻpchiligini shaxsan oʻzi yengadi.

Misr yozma manbalarida yuqori mansabdor shxslarni hayotini tasvirlash muhim oʻrin tutadi. Manbalarda saroy ayonlari (Una, mal) noiblar (Xufxor, Seut monarxlari) harbiy boshliq Yaxmos, memor Ineni va shunga oʻxshashlarni uchratish mumkin. Bazida tarjimai hol badiiy asar shaklini oladi ( “Sinuxet sarguzashtlari”) Qadimgi Misrdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni oʻrganish uchun qator yozma manbalar muhim ahamiyatga ega . Jumladan “Ipuser soʻzlari”, Duaufaning oʻgʻli Axtoyning nasihatlari va Qadimgi Misrning ijtimoiy hayoti, anʼanalari toʻgʻrisida koʻpgina maʼlumotlar “Duaufaning oʻgʻli Axtoyning nasihatlari” va yangi podsholikning maktab oʻgitlarida oʻz aksini topgan. Qadimgi Sharq diplomatiyasining eng birinchi va noyob namunasi Misr firʻavni Ramses II ning Xett podshosi Xattusili bilan tuzgan shartnomasidir.

## 1-§. Misr tabiati

### Sitsiliyalik Diodor. Tarix kutubxonasi

*Diodor (er. avv. I asrda yashagan) Sitsiliya orolidagi Agira shahrida yashagan. Tarixchi o`ttiz yil davomida 40 kitobdan iborat "Tarixiy kutubxona" (bizgacha uning 14 ta kitobi yetib kelgan) ustida ishladi. Birinchi kitoblarda Misr, Bobil, Osuriya tarixi bayon qilingan.*

30. Misr asosan [shimoldan] janubga yastanib yotadi va ko`p darajada tabiiy mustahkamlangani va mamlakatni go`zalligi bilan [Rim] imperiyasini boshqa joylaridan kam bo`lmagan darajada oshib tushadi. G`arbdan u yovvoyi hayvonlar to`la bo`lgan, katta kenglikga cho`zilib ketgan, Liviya cho`li bilan himoya qilingan. Mamlakatni sharqqa qaragan qismlarida daryo bilan himoya qilingan, boshqalari "tubsiz" deb ataladigan sahro va botqoqli joylar bilan o`ralgan.

31. To`rtinchi tomon, uni himoya qiladigan hech qanday pristanga ega bo`lmagan Misr O`rtayer dengizi bilan butunlay yuviladi, bu dengiz qirg`oqlari bo`ylab suzish o`ta davomiy, qirg`oqqa tushish juda qiyin, Liviya dagi Paretoniyadan Kelesiriyadagi Iopigacha deyarli besh ming stadiya<sup>1</sup> masofada Farosdan<sup>2</sup> boshqa xavfsiz gavan yo`q. Bundan tashqari Misrning deyarli barcha qirg`oqlari yonida, suvga yashiringan joyni bilmay suzib keladiganlar ilg`amaydigan yerning tor qumli tasmasi turadi ...

Shunday qilib Misr barcha tomondan tabiatni o`zi bilan mustahkamlangan ...

Uni tasviri uzunchoq: u ikki ming stadiyali qirg`oq bo`yi yo`lagiga ega, materik ichkarisiga qariyb olti ming stadiy cho`zilib ketadi. Endi daryoni tabiati va mamlakatni alohida tomonlari to`g`risida hikoya qilamiz...

32. Nil Misrga kirib, kengligi o`n kenglikga yoki kamroq stadiyaga ega, to`g`ri yo`nalish bo`yicha oqmaydi, har xil burilishlar hosil qilib oqadi, ba`zan sharqqa

---

buriladi, ba`zan g`arbiga, ba`zida hatto janubga go`yo orqaga qaytganday, chunki daryoni har tomonidan tog`lar qirg`oq bo`yicha katta masofaga cho`zilib, daralar bilan, jarliklar va tor daralar bilan kesilib, ularga kirib, daryo orqa yo`nalishga tekislik ichidan va yetarlicha janubga oqib, yana tabiiy oqimiga qaytadi.

Bu daryo boshqalardan ancha katta bo`lsada, “katarakt” deb ataladigandan tashqari, faqat u hammasidan tinch va silliq oqadi. Chunki uzunligi o`n stadiy bo`lgan, torlikda turgan va qoyalar bilan o`ralgan, hammasi notekis va tik tushgan shu bilan birga ko`p katta qoyalarga o`xshash toshlar bo`lgan qandaydir joy bor. Nilni to`la suvligi vaqtida, qachonki barcha qoyalar va toshli joylar to`la suv bilan yashiringanda, ba`zilar ostona orqali oqim bo`yicha pastga qarama – qarshi shamolni tutib suzadi; oqim bo`yicha yuqoriga hech kim suza olmaydi, qaysiki daryoning kuchi insonning har qanday kashfiyotini yengadi. Shunday ostonalar ko`p sonli, lekin ularning eng kattalari Efiopiya va Misr chegarasida.

34. Del`ta tuzilishi bo`yicha Sisiliyaga o`xshaydi; har bir tomoni 750 stadiya uzunlikga ega, dengiz yuvadigan asosi esa – 1300 stadiya. Bu orol odamlar tomonidan bunyod qilingan ko`pgina kanallar bilan bo`linadi va Misrda eng ajoyib joy hisoblanadi. Chunki daryo cho`kindilaridan hosil bo`lib, sug`orilgani uchun u ko`pgina va turli xil ne`matlarni ishlab chiqaradi, har yili toshib, daryo yangi loyqa olib keladi ... Nil tinch oqadi va o`zi bilan ko`p turli xil tuproqni olib keladi, shuning uchun past joylarda botqoq joylar va unumdor botqoqlar hosil bo`ladi...

Nil Misrning quyi qismida ko`p qismlarga bo`linib, tasviri Del`tani tashkil qiladi. Uning tomonlari daryoni eng chekkalaridagi shoxchalaridan hosil qiladi, asos bo`lib daryo oqimini qabul qiladigan dengiz xizmat qiladi. Nil dengizga yetti bosh bilan quyiladi, ulardan sharqqa tomon birinchisi Pelusiy, ikkinchisi Tinit deb ataladi, keyin boshqa quyilishlar boradi: Mendess, Fatniy, Sebennit, Bolbitin va oxirgisini – Kanop, ba`zilar uni Gerak - leotiy deb ataydilar, kabi boshlar mavjud.

36. Kim Nil toshqinini ko`rsa u ajoyib bo`lib ko`rinadi. Chunki, bu vaqtda boshqa barcha daryolar yozgi quyosh turishi vaqtida qayta boshlaydi, yozning keyingi vaqtida yanada sayozlasha boshlaydi, shunda faqat bitta u ko`tarila boshlab, kundan kun shunday ko`payadiki oxirida deyarli butun Misrni suv bostiradi. Ana shunday tarzda u eski holatiga qaytadi, o`zini eski holatiga qaytmaguncha teng vaqtda pasayaveradi. Shunday qilib, mamlakat tekislik xususiyatiga ega va shaharlar va qishloqlar sun`iy balandlikda yotadi, bu ko`rinish Kiklad orollarini eslatadi. Daryo bosib olgan ko`pgina quruqlikdagi hayvonlar halok bo`ladilar, ba`zilari esa baland joylarga qochib chiqib qutilib qoladilar. Mollar bu toshqin vaqtida qishloq va joylarda ular uchun oldindan tayyorlab qo`yilgan ozuqa bilan boqiladilar. Toshqin vaqtida, yuz beradigan falokatlarni oldini olish uchun, podshohlar Nilni Memfisda kuzatishni tashkil qilganlar; bu ish topshirilgan kishlar suvni ko`tarilishini aniq o`lchaydilar va qancha lokot va qancha barmoqda daryo ko`tarilgani va qachon pasaya boshlaganini ochiq bayon qilib, shaharlarga xabarlar yuboradilar. Bu usul vositasida butun xalq daryoni pasayishi to`g`risida xabar topib tashvishdan xalos bo`ladi va shu vaqtni o`zida kelgusi hosilni miqdorini biladi, bu kuzatishlar ko`p vaqt davomida aniq yozib borilgan.

---

<sup>1</sup> besh ming stadiya- 1 stadiya -177,6 m

<sup>2</sup> Farosdan- Iskandariya shahri yaqinidagi orol



**Tayanch iboralar:** Diodor, Agira, Misr, Bobil, Osuriya, Rim, Liviya, Paretoniya, Iopi, Iskandariya, Faros, Sitsiliya, katarakt, Nil-Pelusiy, Tinit, Mendess, Fatniy, Sebennit, Bolbitin, Kanop.

*Mavzuni o'rganish metodlari*

*Talabalarga mavzuni chuqur o'zlashtirish uchun ma'ruza yoki seminar mashg'ulotida sivilizatsiya tushunchasiga nisbatan qanday konsepsiya va tushunchalar mavjudligi haqida umumiy savol beriladi.*

*Bu savolni atroflicha o'rganish va guruhdagi barcha talaba (magistr) larni mavzuga jalb etish, eng qizig'i mavzu haqida har bir talabaning shaxsiy fikrini bilish maqsadida interfaol usullarning yangi turini qo'llash mumkin.*

*Mavzuning shu jihatini yoritishda va talaba (magistr) larni yanada faollashtirishga xizmat qiladigan usullardan biri "FSMU" texnologiyasi qo'llaniladi.*

*Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarning o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrlarini boshqalarga yetkazishga, ochiq holda bahslashishga yordam beradi, hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini rivojlantiradi. Ushbu texnologiya talabalarda o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.*

*O'tkazilish tartibi:*

*Har bir talaba(magistr) FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan tarqatma materiallar tarqatiladi.*

*F- fikringizni bayon eting*

*S- fikringizga sabab ko'rsating*

*M- ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring*

*U- fikringizni umumlashtiring*

F

---

---

S

---

---

M

---

---

U

---

---

*Buning uchun talaba(magistr) lar bilan bahs mavzusi yoki muammo belgilab olinadi.*

*Kichik guruhlar bo'lib, ularga FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlar tarqatiladi va ularga talaba (magistr) larning alohida yozgan tarqatma materiallardagi fikr va dalillarini umumlashtirgan holda yozishlari taklif etiladi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarini o'qib himoya qiladilar.*

*Seminar mashg'uloti yakunida o'qituvchi tomonidan mavzu bo'yicha fikrlar umumlashtiriladi.*